

---

## Qo'shtepada bayram shukuhi

Ayni kunlarda yurtimizda Yangi yil bayrami shukuhi hukmron. Ayniqsa, yurtdoshlarimiz kayfiyati yanada ko'tarinki, nigohlarida bir olam quvonch ko'rishingiz mumkin.

Yangi yil bayrami Qo'shtepa tumanida ham o'ziga xos ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda. An'anaga muvofiq, tumanimizdagi "Qiyqi" mahallasi hududida joylashgan Madaniyat markazi oldida ulkan bayram archasi o'rnatilidi. Archa atrofida tashkil etilgan bezaklar, rang-barang yoritgichlar va xilma-xil ko'ngilochar tadbirlar, Qorbobolar shousi nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham unutilmas zavq bag'ishlamoqda.

Yangi yil munosabati bilan 2025 yilning 5 yanvariga qadar har kuni soat 16:00 dan 20:00 gacha turli teatrlashtirilgan konsert dasturlarini taqdim etishni rejalashtirilgan.

Qo'shtepa tumanining bosh archasi atrofidagi bayram tadbirlari barchani birlashtirib, yangi yilni iliq kayfiyatda qarshi olish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Barchani ushbu bayram tadbirlarida ishtirok etishga va Yangi yil shukuhidan bahramand bo'lishga chorlab qolamiz!

2024-12-26 08:51:17